

HAMIDOVA MUHAYYOXON

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA PO'LAT MO'MIN HAYOTI
VA IJODINI O'RGANISH
(Uslubiy qo'llanma)**

Namangan-2019

Bolalarning sevimli shoiri Po'lat Mo'minning "Sayrang qushlar", "Haykal", "Bir yarim Karim", "Endi adashmaydi", "Chanoyvoy bilan Qovoqvoy", "Bahodirning botirligi", "Oy fil yo'qoldi", "Suqatoy-konfetvoy", "Ona bolam deydi" kabi she'riy to'plamlari va ertaklari, pyesalarini mutolaa qilgan yosh kitobxon o'ziga xos shavqu zavq olmay qolmaydi. Darhaqiqat, Po'lat Mo'min serqirra ijodkor. Uning asarlarini o'qiganda har bir kitobxonning dili ravshan tortadi. "Boshlang'ich sinflarda Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish" nomli uslubiy qo'llanmada ushbu ta'kidlab o'tilgan fikrlar keng va atroflicha yoritib berilgan.

Monografiya talabalar, magistrant va tadqiqotchilar, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari hamda Po'lat Mo'min ijodiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Muallif: filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Hamidova Muhayyoxon

Muharrir: **B.A.Nazarov**
filologiya fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar: **H.Usmonova**
filologiya fanlari doktori

M.Sulaymonov
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Boshlang'ich sinflarda Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish" nomli uslubiy qo'llanma boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining 2019 -yil 18-aprelda o'tkazilgan yig'ilishida 9/3 -bayonnoma bilan tasdiqlangan va nashr etishga tavsiya qilingan.

Ushbu uslubiy qo'llanma Pedagogika fakulteti O'quv-uslubiy kengashida 2019- yil 25-aprelda o'tkazilgan yig'ilishida 9-bayonnoma bilan muhokama qilingan va nashr etishga tavsiya etilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma Namangan davlat universiteti universitet O'quv-uslubiy O'quv-uslubiy Kengashida 2019 yil ____ - _____ da o'tkazilgan yig'ilishida ____ -bayonnoma bilan muhokama qilingan va nashr etishga tavsiya etilgan.

M.Hamidova.

Boshlang'ich sinflarda Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish (uslubiy qo'llanma.- Namangan, 2019.- 60 b.

SO'Z BOSHI

Bugungi kunda Respublikamizda ta'limga e'tibor, ilm-fanning jadal taraqqiy qilishi va bilimlarning tez yangilanishi, yangi texnologiyalarning kirib kelishi, zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalar tizimining barcha soha, jumladan, ta'lim jarayoniga ta'kidliq etilishi komyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va uni amalda joriy etish davr talabiga aylandi.

Ushbu ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning munosib davomchilarini tayyorlash ishiga, ya'ni yosh avlodlarning shakllanish jarayoni amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishni talab etmoqda.

“Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”¹, deb O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida qilgan ma'ruzalarida ta'lim va tarbiya tizimi masalasiga keng e'tiborni qaratib o'tgan edi. Bu fikrdan ham ko'rinib turibdiki, ta'lim va tarbiyaning yosh avlod hayotidagi roli hamda ahamiyati katta. Shuning uchun ham 2017-yil 20-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi. Ma'lumki, 2013-yil 6-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham boshlang'ich sinflarga ta'lim-tarbiya beruvchi pedagoglarni to'liq oliy ma'lumotli bo'lishi kerakligi xususida to'xtalib, “Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski, yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish asosan o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan muallimlarga topshirib qo'yilgan edi. Boshlang'ich ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

kadrlar bajarmoqda”, deb ta’kidlab o’tganlaridek bugungi kunda bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning “Davlat tili” haqidagi Qonuni, “Ta’lim to’grisida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaror, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qaror va boshqa hujjatlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Bu biz keng tatbiq qilib o’rganayotgan bitiruv malakaviy ishimizga ham taalluqlidir, desak yanglishmaymiz.

Boshlang’ich sinflarda o’qish mavzularini o’tishda o’qish kitobidagi bir qancha shoir va yozuvchilar hayoti va ijodi o’rganiladi. Ularga ta’rif beriladi. Asarlari tahlil qilinadi. Qahramonlarga tavsif beriladi. Lekin o’qish kitobida tilga olingan yozuvchi va shoir haqida to’liq va batafsil ma’lumot berilmagan. Bugungi o’qitish jarayonida o’quvchi yozuvchini yoki shoirni hayotda qanday shaxs bo’lganligini, unda shakllangan insoniy fazilatlar qay darajada ekanligini bilmaydilar. Bugungi ta’limda yosh avlod yozuvchining asarlarini bilishi bilan birga, yozuvchi yoki shoirning hayotda kim bo’lganligini, unda qanday insoniy fazilatlar borligi, bo’lganligi bilan qiziqsalar foydadan holi bo’lmas, deb o’ylaymiz.

Bugungi kunda o’quvchilar darslikdagi yozuvchi va shoirlarning asarlarini bilish bilan birga, ularning hayoti va ijodiy faoliyati xususida to’liq ma’lumotga ega bo’lishi kerak. Bularning hammasi biz tadqiq etayotgan mavzuning dolzarbligini bildiradi.

2017-yil 12-yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot ilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi farmoyishlari e’lon qilinganligi, ushbu farmoyishda ta’kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta’lim muassasalari uchun o’quv adabiyotlari yaratish va o’quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratilganligi, bunda O’zbekistonda

ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etib kelinayotganligi, Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatayotganligi, umuman, ushbu Farmoyishda ko'rsatilganidek ishchi guruhlar ikki oy muddatda mutasaddi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, matbuot va axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishni inobatga olgan holda, tegishli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kirishishganligi, hattoki, tajriba-sinov ishini olib borish jarayonida o'tkazilgan bu boradagi tadbirlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yaqinda yordam beradi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qish darslarining samaradorligini oshirish orqali yoshlarni milliylikka va badiiy asarga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga, kitob bilan do'stlashishga undaydi. Umuman olganda, yosh avlodni ijodiy qirralarini ochishga, yangidan-yangi iste'dolarni kashf etishda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Boshlang'ich sinf o'qish darsida har xil janrdagi asarlar, xususan, hikoya janridagi asarlar berilgan. Ushbu asarlar orqali o'quvchilarning fikr doirasini kengaytirishda, aql-idrokini rivojlantirishda, kuzatuvchanlik hislarini, nafosat tuyg'ularini o'stirishda zarur omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilarni hamkorlik hamda tashabbuskorlik malakalari rivojlantiriladi.

I BOB

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA PO'LAT MO'MIN HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH YO'LLARI

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha predmet darslarida amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisob'ga olish zarur. O'quv materialini hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o'qishni tashkil etish bolani o'qish mashg'ulotidan bezdiradi.

O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar asosida o'qitish o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamaganidek, o'qib charchamasligini sezmaydi.

Inson ko'ngil borlig'i, ruhiyatiga egaligi bilan boshqa jonzoatlardan farq qiladi. Shu vaqtga qadar o'tgan barcha buyuk zotlar odamlar ko'nglini poklash, ruhini g'uborlardan tozalashga harakat qilganlar. Inson ko'ngli va ruhi pokizaligiga bu qadar katta e'tibor qaratilishining sababi pokiza ko'ngil va toza ruh bo'lgan kishigina ezgulikka, yaxshilikka, oliyjanoblikka mayl bo'ladi. Toza ruh hamda pokiza ko'ngil esa o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ularni qaror toptirish, shakllantirish uchun har bir odam tozarish yo'lini o'tashi, o'zgalarning ko'nglidagi holatlarni iylg'aydigan darajaga ko'tarilishi lozim bo'ladi. Ayni shu jarayonda badiiy adabiyotning zimmasiga ulkan vazifa yuklatilgani anglashiladi. Faqat badiiy asargina odamga o'zga kishilarni tushunish, anglash, tuyish imkonini beradi. Chunki badiiy asarlarda boshqa odamlarning ko'ngil manzaralari, ruhiyat chizgilari ta'sirli yo'sinda aks ettiriladi.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga nozik tovlanish va hissiyotidagi chigal jarayonlarni ilg'ash hamda aks ettirishga xizmat qiladi. Chinakam badiiy asar insonni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o'y-fikrlar, orzu-umidlar, sezgi va kechinmalarni iyodalaydi. Dunyoda yashayotgan odamlar bir-birlariga o'xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O'zbek

adabiyoti- inson ruhiy holatlari mahorat bilan aks ettirilgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg`ota olishi bilan ularning ma`naviy takomiliga hissa qo`shadi. Muhimi, ular kishiga faqat ma`rifat beribgina qolmay, uning badiiy didi, takomiliga, ma`naviy kamolotiga ham xizmat qiladi.

Ma`naviyatning mavjudligi insonni olamdagi boshqa jonzotlardan ajratib turadi. Ma`naviyatning mag`zini esa badiiy adabiyot tashkil etadi. Chiqish (Sharq) da bu tushuncha, birinchi navbatda, adab (ko`pligi – odob) bilan bog`liqdir. Ma`lumki, “Adabiyot” atamasi «adab» so`zidan olingan. Adabning ma`nosi keng: yurish-turish odobi, so`zlash odobi, ovqatlanish odobi, muomala odobi vaboshqalar. Shu jihatdan adabiyot o`ziga xos o`rin kasb etadi. Lekin adabiyot faqat odob o`rgatish bilangina cheklanib qolmaydi. U bizga inson hayotini, uning sezimlarini ko`rsatib beradi. Uning qalbi, orzu intilishlari, sevinch-armonlari, qayg`u-iztiroblari, bir so`z bilan aytganda, ma`naviy borlig`ini namoyon etadi. Demak, adabiyot insonshunoslik, ruhshunoslik hamdir.

So`zlar badiiy matnning yuzaga kelishiga omil bo`ladi, ammo har qanday matn va so`z badiiy adabiyotga daxldor bo`lavermaydi. Buning uchun so`z muayyan estetik vazifani bajarishi lozim. Shunga ko`ra ham badiiy adabiyot voqea-hodisalar, insoniy kechinmalar, his-tuyg`ularni bayon qilmaydi, balki ularni tasvirleydi. Tasvir so`zga tayanadi. So`z sehri, mo`jiza bilan o`ziga mahliyo qiladi, rom etadi. Shuning uchun go`dak allaga, kichik yoshdagi bola ertakka, kattalar badiiy ijodning turli ko`rinishlariga nihoyatda qiziqib qaraydilar. Ularning olamiga kirib qolgach, o`zlarini ham shu olamga mansub hisoblaydilar, chiqib ketolmaydilar.

Boshlang`ich sinflarda o`qish dasturini tuzishda g'oyaviy estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olinadi. Shunday qilib, o`quv materiallari bolalarga ta`lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo`igan borliq haqidagi bilimlar va yuksak insoniy munosabatlarni o`z ichiga oladi. O`quvchilarni badiiy, ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o`qish dasturlarining tub mohiyatini tashkil etadi.

O'tmishda vatanimiz va xalqimiz boshidan kechirgan muhim voqea-hodisalar aks ettirilgan asarlarni o'qish orqali o'quvchilarda ijtimoiy-tarixiy bilimlar shakllana boradi. O'tmish haqidagi asarlarni o'qish orqali o'quvchilar g'azal mulkining sultoni bobokalonimiz Alisher Navoiy, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Husayn Voiz Koshifiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, at-Termiziy va boshqa ko'plab o'z davrining buyuk namoyondalari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

Ona yurt dahlsizligi yo'lida ajdodlarimiz olib borgan kurashlar tarixi haqida hikoya qilingan asarlar bolalarda vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturidan o'rin olgan vatan mavzu'sidagi asarlar o'quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va xalqning jangovor mehnati bilan tanishtirishga yordam beradi. Dasturning vatanga, inson e'tiqodi va ma'naviyatiga bag'ishlangan mavzularini o'rganish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o'rin tutadi.

Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimiz, xususan, ozod vatanimizning ramzlari (bayrog'i, tamg'asi, madhiyasi) haqidagi asarlar milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni ham tabiatidan kelib chiqib rollarga bo'lib o'qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga r. O'quvchilarning o'quv dasturi talablarini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, ularni darsda faol qatnashishga undash, o'zlashtirish sur'atlari va imkoniyatlariga qarab qo'shimcha vazifalar berish, darsning qiziqarli va samarali bo'lishi uchun mos vazifalardan unumli foydalanish, dars jarayonida bolalar jamoasi e'tiborini jalb qilgan holda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning yechimini topish, o'quvchilarning bilim, malakasini baholash, uyga beriladigan vazifalarni me'yorlash, ularning zo'riqishlarining oldini olish lozim.

O'qish darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ta'lim va tarbiya maqsadining birligi;
- ta'lim va tarbiya vazifalarining birligi;
- ta'lim va tarbiya manbalarining uzviy bog'liqligi;

Yuqorida berilgan talablarga o'qituvchi o'z munosabatini bildirishi va ularni dars jarayonida muntazam bajarib borishi kerak.

Vatanimizning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim mustahkam poydevor rolini o'ynaydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi.

O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim.

Bolalarni o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. Buning uchun o'quvchi madaniy -maishiy va boshqa sohadagi turli korxonalariga sayohatlar uyushtiradi, tabiat hodisalari yuzasidan kuzatishlarni tashkil etadi.

Boshlang'ich sinflarda yozuvchi shaxsini o'rganish bugun birinchi galda bajarilishi kerak bulgan ishlarimiz orasida turibdi. Chunki yosh avlodni haqiqiy vatanparvar kilib tarbiyalashda badiiy asarlar, ulardagi yozuvchi xarakteri va shaxsi tarbiyada muhim o'rin tutadi. Bolalar yozuvchini taniydi, lekin hayotda uning kim ekanligini bilmaydi. Yoki bunga e'tibor ham bermasligi mumkin. Biz tadiqiq etayotgan mavzu shu masalalarga oydinlik kiritadi, degan umiddamiz. Mavzu haqida biz ancha bosh qotirdik. Uni qanday qilib yoritish, o'quvchiga qanday qilib yetkazish yo'llari haqida fikrlashdik, masalihatlar oldik, tajribalar o'tkazdik. Uni maktablarda sinab ko'rdik. Bir qancha uslublarni o'ylab topdik. Ularni dars mashg'ulotlarida sinab ko'rdik. Hozir ularning ayrimlari haqida fikrlashamiz.

Maktab darsligi bolalarni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Darslik o'qituvchining maqsadini amalga oshirishda muhim manbadir.

O'quvchilarning darslik yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlari nazarda tutilgan.

Darslikda o'qish darslari oldiga qo'yiladigan quyidagi didaktik vazifalar alohida inobatga olingan:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatleri: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk kishilar qilib va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir vazifani bajarishning aniq metodik usullari mavjud. Ammo ular boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda o'qish darslari va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi. Yaxshi o'qish sifatlarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, darslikdagi asarlarni o'rganishga va undagi yozuvchi shaxsiga baho berish. Uning kimligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish biz pedagoglarning muhim vazifasiga aylanishi kerak. Ana shundagina biz bugunnnning talablariga to'la javob bergan bo'lamiz.

Darslikdagi har bir yozuvchi va shoir o'qituvchining nazaridan chetda qolmasligi kerak. Qaysi shoir va yozuvchi bo'lsin u haqda o'quvchilarga ma'lumot yetkazilishi kerak.

Adabiyot hayotning in`ikosi sifatida har qanday hodisani aks ettirishi mumkin. Badiiy asarlarda ursh va tinchlik, tog` va daryolar, shahar va qishloq, inson va hayvonot dunyosi, o`simliklar olami, hatto sukunat ham qalamga olinaveradi. Ammo bularning barchasi inson qalbi, uning ruhiyati, tuyg`ulari, o`ylari, ma`naviyati bilan bog`liq bo`ladi. Demak, adabiyotning markazida har doim inson turadi. Ammo har bir asarda inson obrazining qatnashuvini shart qilib qo`ymaydi. Badiiy asar gul, qush, bahor, tosh, hayvonlar, qumursqalar tasviriga bag`ishlangan bo`lishi ham mumkin. Biroq bu asarlarda ham insonning borliqqa bo`lgan munosabati aks etadi. Aslida bular insonning go`zallikka bo`lgan intilishi bilan bog`liq. Shu ma`noda, adabiyot estetik tarbiya vositasi hamdir. Zero, u inson qalbining go`zallikdan zavq va bahra olishiga imkon beradi. Qabohat, razolat, yovuzlik tasviriga esa insonning ularga nisbatan nafrati ifodalangan bo`ladi. Bunda adabiyotga obrazlilik yordam beradi. Badiiy asardagi har bir shaxs, hodisa, tasvirning o`quvchini ergashtirishi, uning tuyg`ulariga ta`sir ko`rsatishi, muvozanatdan chiqarishi, uning ko`z o`ngida namoyon bo`lishi obrazlilikdir. O`quvchi badiiy matnda qalamga olingan narsalarning so`z bilan chizilgan suratini ko`radi. Lekin bu surat qotib qolgan holatda emas, balki muttasil harakatda, bir-biri bilan qarama-qarshilik va ziddiyatlarda namoyon bo`ladi. Shuning uchun bu kabi badiiy asarlar o`quvchilar tomonidan sevib mutolaa qilinadi.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda keng to`xtalgan bolalar shoiri Po`lat Mo`min hayoti va ijodi xususida ham shu fikrlarni aytish mumkin.

Bolalarning suyuqli shoiri Po`lat Mo`min yoshligidanoq adabiyotga havas qo`ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o`qib yurgan vaqtida adabiyot to`garagiga faol qatnashdi. Adabiyotni qunt bilan o`qidi, o`rgandi. O`rta ma`lumot olgach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o`zbek tili va adabiyoti fakul`tetiga o`qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagach, aspiranturada o`qidi, maktablarda o`qituvchilik qildi. So`ngra O`zbekiston davlat nashriyotida ishladi. P. Mo`min qaerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o`rgandi. Kichik-kichik she`rlar yoza boshladi. 1944-yilda "Bahorga sayohat" nomli birinchi she`ri bosilib chiqdi.

Birinchi she'rlar to'plami esa 1949-yilda "Sayrang, qushlar" nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qutib olindi. To'plamdan munosib o'rin olgan "Obod o'lkam", "Haykal", "Alla va Jalla" (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun birgina qobiliyat va istakning o'zigina yetmaydi. Belinskiy ta'rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik ta'b egasi, go'dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy, bolalarcha soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmuni taqazo etadi, albatta. Biz Po'lat Mo'min ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligini his etamiz.

Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli "Hunardan unar", "To'g'ri o'sgan gul bo'lar", "Aql qayerda bo'lar", "O'rinbosarlar", "Oltin nay", "Bir yarim Karim", "Endi adashmaydi", "Barcha bola do'st bo'lsa", "Rahmatga rahmat", "Gazpolvon ertak aytar", "Chang yutar botir", "Do'sting qancha ko'p bo'lsa", "Oftob va odob", "Yaxshilarga o'xshasam", "Bu juda soz", "Eson va Omon", "Oltmish olti oltin qo'l", "Ustozlar izidan", "Bolalarning baxti kulgan", "Bir yuz bir oltin qo'l" she'riy to'plamlari; "Chanoqvoy bilan Qovoqvoy", "Bahodirning botirligi", "Oq fil yo'qoldi", "Suqatoy-konfetvoy", "Ona bolam deydi" kabi ertaklari, pyesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqlari doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o'zbek bolalar adabiyotining ham yutug'i, obro'si hisoblanadi.

Kimda-kim a'lo va yaxshi baholarga o'qish uchun astoydil intilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadga erishadi. Agar bu intilish jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borilsa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Po'lat Mo'min ta'lim va jismoniy mehnatga bag'ishlangan she'rlarida mehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba'zan ishyoqmas, dangasa, yalqov o'quvchilarni tanqid qiladi, ularning kamchiliklarini ochib tashlaydi. Masalan, "Besh oldim,

bash!” degan she’rini olaylik. Asar qahramoni uzoq vaqt past bahoga o`qib yurardi, fanlarni ko`ngildagidek o`zlashtira olmaganidan do`stlari, ota-onasi va o`qituvchilar oldida gunohkordek his qilardi o`zini. O`quvchi bunday qiyin ahvoldan faqat ko`proq dars tayyorlashi, kitob o`qishi bilan qutilib ketishi mumkinligiga ham ishonmaydi. Nima bo`ladi-yu, bir kuni u uyga berilgan topshiriqni qayta-qayta o`qiydi, dars va kitobdan boshqa hech narsani o`ylamaslikka harakat qiladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko`p mehnat qilish lozimligini tushunib yetadi. O`zidagi bunday ijobiy o`zgarishdan xursand bo`ladi. Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatiga mos ravishda chizib beradi:

Shunday qilib do`stlarim,
Aytsam yurak so`zlarim,
Yurishib qoldi ishim
Ko`payib ketar “besh”ish.

Bolalar shoirining “Tuganmas kon”, “O`qituvchi baho qo`yganda”, “Ko`chalarni to`ldirib”, “Sizga nima bo`ldi, o`g`il bolalar?”, “Yuqimli “2” lar”, “Bilsa bo`lar ekanku!”, “Sentyabrdan kim sevinar?” kabi she`rlari ham a`lo va yaxshi o`qish uchun intilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to`g`risida yozilgandir.

Ba`zan o`quvchi-yoshlar orasida mug`ambir, pismiq bolalar ham topilib qoladi. Shoirning “Qo`l ko`tarib qo`lga tushdi” degan asari ana shunday bolalarga bag`ishlangan. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o`quvchi. U buni o`qituvchisiga sezdirmaslik uchun har kuni dars paytida “Men aytaman, deb ko`taradi qo`l”. O`qituvchi esa bolaning bunday mug`ombirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o`zlashtiribdi, deb undan so`ramaydi, baho qo`yib qo`yaveradi. Oxirgi bir kuni “Mayli, ayta qol” deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o`qituvchi va o`quvchi do`stlari oldida izza bo`ladi:

Darvozasiga
Urilganday gol.
Qo`lga tushgandi
U ko`tarib qo`l.

Shoir she`rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi ochib beriladi. “Oftob chiqdi olamga” asarida u xalq og`zaki ijodidan unumli foydalangan. She`rda bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko`maklashishi nihoyatda ta`sirli va shirali ifodalangan.

Po`lat Mo`min haqiqatan ham oftob-bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy do`stlari qulog`iga quyishga, buni bola obrazi orqali yanada yorqinroq, ta`sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

Oftob chiqdi olamga,
Chopib bordim dalamga.
Dadam ko`chat ekardi,
Salom berdim dadamga.

Po`lat Mo`minning “Yer chopildi-javob topildi” asarida mehnatdan zavqlanish tuyg`usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq- misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi-yer chopadi. Terlab-pishadi. Natijada ko`ngli yorishadi, fikri oydinlashadi. Uyga berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi. Barcha savolga javob topildi. Shu bahonada yer ham chopildi.

Po`lat Mo`minning “5” baho qo`shig`i, “Xursandmisiz?, Xursandmiz”, “Sentabrim”, “Uch baho-puch baho” singari qo`shiqlari o`qish, ilmi bo`lish mavzuiga bag`ishlangan. O`z ustida ko`p ishlash, kitob o`qish, dars qoldirmaslik “a`lo” o`qishning mustahkam garovi ekanligini shoir “Uch baho-puch baho” qo`shig`ida qoloq o`quvchilarni ancha tanqid qilib o`tadi. Onalarni, keksalarni

hurmat qilish, e'zozlash ("Achom-achom, buvijon", "Mehribonim, oyijon!"); o'zaro hurmat, do'stlikni joyiga qo'yish ("Bir jahon bolalarimiz"); har bir shodiyona, bayramlarni zo'r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish ("Ko'ylagim") shoir qo'shiqlarining asosi hisoblanadi.

Po'lat Mo'min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko'proq uning "Birovlar", "Bir odamning afsusi", "So'zi shunaqa-o'zi shunaqa", "Behzodni bilasizmi?", "Ulg'aydimi aqlingiz?", "Qo'ling oltin-yo'ling oltin", "Birinchi bo'l, birinchi" kabi she'r va qo'shiqlarida ochib beriladi.

Po'lat Mo'min "Alla bilan Jalla", "Ziyrak fil va ziqna boqqol", "Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga", "Unutgan o'g'il", "Oltin nay", "Dono bola", "Bilganni qari – bilmaydi pari" singari ertak-dostonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko'rinib turadi.

Po'lat Mo'min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning "Oltin nokli bog'", "Ko'cha-ko'pchilik uchun", "Eh, rosa shirin ekan", "Xolning jiyron velosipedi", "Ko'ngil istar yaxshilik" degan dostonlari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoirning dostonlarida bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, birodarlik, o'qituvchi va jonajon maktabga muhabbat, birlik, baynalmilallik kabi masalalar badiiy bo'yoqlarda, qiziqarli epizotlarda chizib berilgan. Bir so'z bilan aytganda, maktab o'quvchilarining hayoti zavq-shavq bilan tasvirlangan.

Po'lat Mo'min o'zining ertak-pyesalari bilan ham yosh kitobxonlar o'rtasida shuhrat qozondi. Uning "Qovoqvoy bilan Chanoqvoy", "Suqatoy-Konfetvoy", "Ona bolam deydi, bola onam deydi" nomli fantastik ertak-pyesalari uzoq vaqtlardan beri bolalarning quvonchiga-quvonch qo'shib kelayotir.

Muallifning "Qovoqvoy bilan Chanoqvoy" asarining ta'lim-tarbiyaviy tomoni juda katta. Undagi ertaklarga xos shartli, allegorik obrazlar tamomila aniq va hayotiy zaminga asoslangan.

Pyesaning bosh qahramonlardan biri Qovoqvoydir. Uning timsolida muallif dangasalik va beg'amlik oqibatida darslarni o'zlashtira olmay, sinfda qoluvchi lapashang va po'k bolaning tadrijiy takomilini mujassamlashtirgan. Do'stlari

ta'sirida Qovoqvoyning asta-sekin tuzala borishi, ilg'orlar qatoriga kirib, mehnatsevarlik va epchillik darajasiga ko'tarilishi bilan bog'liq voqealar, bu yo'ldagi kishilar o'rtasidagi munosabat, tortishuv va kurashlar pyesa syujetini tashkil etadi.

P.Mo'min ertak syujetini harakatiga keltirishda bosh va yordamchi - konfliktlardan foydalanadi. Qishloq xo'jalik ekinlarining ashaddiy dushmanlari - chigirtka va kapalaklar o'z urug'larini paxtazorlarga tarqatmoqchi bo'ladilaru Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, o'ujumoy, Lavlagi hamda Sholg'om kabi kuchlar ta'qibidan qo'rqadilar. Qovoqvoyning befahm, landavur, beg'am hamda qo'rqoqligi zararkunandalarga ish beradi. Ular paxtazorlarga sochishni buyurib, tuxumlari solingan xaltachani Qovoqvoyga zo'rlab tutqaziladilar. Hashorotlar undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish uchun harakat qilsa, ijobiy qahramonlar Qovoqvoyni tarbiyalamoqchi. Mana shu o'rtadagi kurash asar konfliktining bosh va etakchi tomonini tashkil etadi.

Mehnatga bo'yni yor bermay, darslarni o'zlashtira olmaganidan tashqari, Qovoqvoy tanbal, yalqov, fahm-farosati kam, bo'shang, ayni vaqtda u, haddan ziyod chiranchiq. Uning xarakteridagi bu sifatlar asardagi ijobiy kuchlar bilan bo'lgan ziddiyat va to'qnashuvlarda ochib tashlanadi, Qovoqvoy asta-sekin tuzalish tomon yo'naltiriladi. Bir-birini o'rtoqlarcha samimiy tanqid qilishga asoslangan ijobiy kuchlar o'rtasidagi shu ziddiyatlar dramatik konfliktning yordamchi chizig'ini yuzaga keltiradi. Konfliktning yordamchi chizig'i esa yaxshi ishlangan va qahramonlar xarakterini chizib berishda, asarning muvaffaqiyatini ta'minlashda katta xizmat qilgan. Po'lat Mo'min Qovoqvoyning maqtanchoqligini fosh etib, uni izza qilishda to'g'ridan-to'g'ri zalga-tomoshabinlarning o'ziga murojaat etish bilan o'ziga xos yutuqqa erishgan: Qovoqvoyning "Mendan karra jadvalni so'rang, suv qilib ichib yubordim" degan mazmunda kerilib savol-javob o'ynashi zalni faollashtiradi, maqtanchoqning miyasi g'ovlab, o'sal bo'lishi qalblarga samimiy kulgi shavqini soladi.

Chiranchiq Qovoqvoyning jismoniy zaif va po'kligi kamtarin Tarvuz bilan yuz bergan tortishuv va to'qnashuvlarda Tarvuzdan engilib zil ketsa, ikkinchi

tomondan qadam-baqadam Qayratga kira boradi, badan tarbiya mashqlari foydasini, mehnatsevarlik manfaat keltirishini anglaydi.

Qovoqvoyning qayta tarbiyalanishida ayniqsa, Chanoqvoy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshda Chanoqvoyning odilona, samimiy, do'stona maslahatlariga mensimay qarib, quloq solmagan Qovoqvoy "Sehrgar" gaplarini jon dili bilan tinglaydi. Uning ko'rsatmalariga amal qilib, karrani o'rgana boradi, Qayratga kiradi, faollashadi. Zararkuranda hashoratlarga qarshi kurash, ularni tutishda faollik ko'rsatish darajasiga ko'tariladi. Biroq uning xarakteridagi zaif tomonlar tezda uzil-kesil yo'qolmaydi. U endi do'stlariga "Sehrgar"ni uchratganligi bilan maqtanadi. Muhimi shundaki, do'stlar uni qayta tarbiyalashga, o'z saflariga qaytarishga muvaffaq bo'ladilar.

Asarda Chanoqvoy xarakteriga mos va etarli material berilgan. Xususan, muallif uning tilini individuallashtirishga alohida e'tibor bergan. Pyesaning she'riy kuch, yumoristik va satirik fazilatlar ham Chanoqvoy, Qovoqvoy, Tarvuzvoy nutqida, ularning dialog va monologlarida yaxshi ko'rinadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pyesasi "Suqatoy-Konfetvoy"da ham ko'ringan. Tematikasi va g'oyaviy yo'nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin. Unda ham ilm, odob, halollik va mehnatsevarlik ulug'lanadi. Voqea bilim xola, Janjal xola, Qurt o'rtasidagi kurash asosida rivojlanadi.

Po'lat Mo'minning butun e'tibori, ijodining mohiyati bolalarga hayot yo'lini ko'rsatib berishga intilishdan iborat. Shu pyesadagi Aqljon bilan Odobjon aytganidek:

Aql, Odob, Fan yo'li,
Yo'llarning eng ma'quli,
Kimki yursa shu yo'ldan
Ishi keladi o'ngdan,
Yo'llar eltar maktabga,
Yetkazadi maqsadga.

Bugina emas, bolalar Po`lat Mo`minning o`nlab topishmoqlarini ham sevib o`qib o`rganadilar va zehnlari charxlaydilar.

Bolalarni boshlang'ich sinfga qabul qilgan o`qituvch to`rt yil mobaynida o`quvchilar ustida muttasil ishlaydi. Sababi 7 yoshdan 10 yoshgacha bo`lgan bolalarning xarakter xususiyatlari shuni taqozo etadi. Pedagog shu to`rt yil davomida o`quvchilarining faolligini kuzatib, ularni ma`lum maqsad sari yo`naltiradi. Bu jarayonda o`quvchilar faolligining rivojlanishida har bir fanning, jumladan, "O`qish" fanining o`z o`rni bo`lib, o`qituvchi ularning ushbu fanlardan o`zlashtirish darajasini muntazam ravishda kuzatib boradi. Chunki har bir fan o`quvchida biron bir xususiyatni shakllantiradi.

Boshlang'ich ta`lim jarayonida o`qish darslarining o`rni beqiyos bo`lib, uni barcha fanlarning umumlashgan ko`rinishi, fanlarning tomiri deb aytishimiz mumkin. Chunki o`qish darslari o`quvchilarni tez va ifodali o`qishga, adabiyotga oid bilimlar bilan tanishishga muvofiqlashtirilgan -, ammo barcha fanlar: tabiatshunoslik, odobnoma, ona tili, mehnat va boshqa fanlarga doir ma`lumotlar ham berib o`tiladi.

Boshlang'ich sinfda savod o`rganish davri tugagandan so`ng, "O`qish kitobi"ni o`qishga o`tiladi. O`qish darslari o`quvchilarning fikrini, nutqini o`stirish har tomonlama tarbiyani amalga oshirish hamda, o`quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa o`quv fanlari orasida alohida o`rin tutadi.

Boshlang'ich ta`lim ustalari ish tajribasining ko`rsatishicha, qayerda o`quvchilarga talabchanlik, yuksak hurmat, muhabbat, ishonch kuchli bo`lsa, o`sha yerda yuksalish, rivojlanish samarali va sezilarli bo`ladi.

Boshlang'ich sinf o`quvchilariga ta`lim berilayotganda eng avvalo, ularning yoshiga mos asarlar, matn va she`rlar tanlay olish va ularning yoshiga hamda jismoniy rivojlanishiga mos dars ishlanmalar tuzish, ularni milliy mafkura asosida axloqiy qadryatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Bu dars samaradorligini va o`quvchilar faolligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Sababi, uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun boshqa fanlarni, ta'limning tub mazmun-mohiyatini o'qish ta'limisiz, ya'ni harflarni tanimay turib, so'z mohiyatini, lug'aviy ma'nosini anglab yetmay turib, eng avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugingi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy – ma'naviy qadriyatlar, xalqlar dostligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommobop asarlar kiritiladi. Shu bois "O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllanishiga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari o'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi.

Bunday mavzular o'quvchining yashab turgan muhitidan, ularning yoshi bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar asosidan kelib chiqib, yozilgan qisqa matnlarni o'zlari ishtirokida kichik teatrlar sahnalashtirish orqali yosh avlodni mutolaa qilishga, turli qiziqarli va badiiy asarlarni o'qishga o'rgatish, bu bilan ularning dunyoqarashini kengaytirish barobarida darsda o'quvchining faolligini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar o'qigan kichik matnni teatr-sahna ko'rinishi shaklida ko'rsa, boshqa o'qiydigan asarlarini ham ko'z oldida tasavvur qilish doirasini ham kengaytiradi va bu bilan yoshlarni badiiy asar orqali hayotning turli jabhalarini, rang-barangligini va bilim darajasini adabiy estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Bundan tashqari o'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv, ko'nikma-malakalari hamda kerakli bilimlarni egallashlariga turtki bo'ladi.

Boshlang'ich sinfning savodxonlik davrida harf va tovushlar, bo'g'in ko'chirish, so'z va o'qish texnikasini egallagandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommobop matn va asarlar, kichik she'rlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va boshqa o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yiladigan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil etish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, eng avvalo, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ma'lumki, o'qish darslari kichik syujetli matn va asarlardan boshlanadi, o'qituvchi avval o'qiladigan matn oldidan o'quvchilarda shu matn yuzasidan tushuncha hosil qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng savol-javob o'tkaziladi, o'qituvchi quyidagi mazmunda savollar bilan murojat qilish orqali darsda o'quvchilar faolligini oshiradi:

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umuta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beruvchi dastur.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va bosha me'yoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat ta'lim standartiga amal qilish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.¹²

¹Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti.- T., 2010. - B. 6-8.

Davlat ta'lim standarti barcha o'quv fanlari uchun mujassamlashgan qo'llanmadir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini hamda dars samaradorligini oshirish uchun ma'lum bir tayyorgarlikni yuzaga keltiradi.

Boshlang'ich ta'limda o'qish faniga quyidagi maqsad, vazifalarni belgilaydi; Bola o'qish texnikasini egallash uchun avvalo, uning savodhonlik darajasini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, to'g'ri talaffuz etishni o'rgatish lozim.

Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchilardagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ravon o'qiy olish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi belgilanadi.

Bola matn mazmunini to'liq o'qib olishi, shuningdek, o'zgarar nutqini eshtib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Bundan tashqari dastur talablarini to'liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o'qish ko'nikmalarini to'g'ri va puxta egallash hamda takomillashtirib borish zarur. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.

O'qish malakalari deganda badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish tushuniladi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

O'qish malakalarining sifatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi **ongli o'qish** hisoblanadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasidagi to'xtamlarga e'tabor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi, to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruhshunos olim T.G.Yegorov o'zining “Ocherki psixologi obucheni detey chteniyu” nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: *analitik bosqich, sintetik bosqich* va

avtomatlashgan bosqich. **Analitik bosqich** savod o`rgatish davriga to`g`ri keladi, bunda so`zni bo`g`in-harf tomonidan tahlil qilish va bo`g`inlab o`qish malakasi shakllantiriladi. **Sintetik bosqich** uchun so`zni sidirg`a o`qish xarakterlidir; bunda so`zni ko`rish orqali idrok qilish, uning talaffuzi so`z ma`nosini anglash bilan asosan mos keladi. O`qish so`z ma`nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O`quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o`tadilar. Bundan keying yillarda esa o`qish **avtomatlasha** boradi.

To`g`ri o`qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o`qish tushuniladi, ya`ni to`g`ri o`qish so`zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so`zdagi tovush yoki bo`g`inni tushurib qoldirmay, boshqa tovushni qo`shmay, harflar o`rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so`zga urg`uni to`g`ri qo`yib o`qish hisoblanadi. M.Odilova va T.Ashrapovalar “Adabiy talaffuz me`yorlariga qo`yilgan barcha talablar to`g`ri o`qish ko`nikmasiga ham taalluqlidir”, - deb ta`kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to`g`ri o`qishga quyidagicha ta`rif bergan: “To`g`ri o`qish – bu materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko`chirishdir”. Demak, to`g`ri o`qish so`zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me`yorlar asosida o`qishdir.

To`g`ri o`qish so`zning uzun-qisqaligiga, o`quvchining so`z boyligiga, ya`ni so`zning leksik ma`nosini qanchalik bilishga hamda so`zning bo`g`in va morfemik tarkibiga bog`liq. O`quvchilar ko`pincha o`qishda xatoliklarga yo`l qo`yadilar:

1. So`zni talaffuz qilish bilan uning ma`nosini tushunish o`rtasida puxta sintez bo`lmagani uchun bola so`zning oldin tovush tomonini ko`radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So`zning ma`nosini esa e`tibordan chetda qoldiradi.

2. So`z ikki bo`g`inli bo`lib, bola uni oldin eshitmagan bo`lsa, xatoga yo`l qo`yadi.

3. So`zning ma`nosini bilmaslik tufayli xatoga yo`l qo`yadi.

4. Tez o`qiyman deb xatoga yo`l qo`yadi.

5. To`g`ri o`qish yorug`likka va yorug`likning tushishiga ham bogliq.

6. Undosh tovush soʻzning oʻrtasida va oxirida kelgan yopiq boʻgʻinli soʻzlarni oʻqishda qiynaladilar.

Oʻquvchilar yoʻl qoʻygan xato ikki xil yoʻl bilan tuzatiladi:

1. Oʻquvchi soʻz oxiridagi qoʻshimchani notoʻgʻri oʻqisa, uni oʻqishdan toʻxtamasdan xatoni toʻgʻrilash mumkin.

2. Xato oʻqish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta oʻqitish usulidan foydalaniladi. Bunda oʻquvchiga oʻqigan matn yuzasidan savol berilsa, oʻquvchi eʼtiborli boʻlib qayta oʻqiydi.

Tez oʻqish meʼyoriy tezlikda oʻqish boʻlib, bunda oʻqish surʼati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. Oqish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda oʻsib borishi lozim. Oʻqilayotgan asar mazmunini oʻzlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni taʼminlaydigan oqish tez oʻqish deyiladi.

Oʻqish tezligi bir daqiqada oʻqiladigan soni bilan belgilanadi. 2005-yil eʼlon qilingan oʻqish dasturining 1-sinfning 2-yarim yilligida oʻqish surʼati 20-25 soʻz (notanish matnni oʻqish tezligi ham 20-25 soʻz); oʻquv yili oxirida esa 25-30 soʻz; 2-sinfning birinchi yarim yilligida matnni oʻqish tezligi 30-35 soʻz; 2-yarim yilligida 40-45 soʻz; 3-sinfning 1-yarim yilligida 60-70 soʻz; 2-yarim yilligida 70-80 soʻz; 4-sinfning 1-yarim yilligida ichda ovozsiz 110-130 soʻz, ovozli oʻqishda 90-100 soʻz deb belgilangan.¹

Tajriba shuni koʻrsatadiki, bir daqiqada bola 250 soʻzli matnni oʻqisa, undagi 200 ta soʻzni eslab qolar ekan. Agar harflab, boʻgʻinlab oʻqisa, uning diqqat markazida soʻz emas, boʻgʻin boʻladi. Natijada u soʻzlarni eslab qola olmaydi.²

Ongli oʻqish yaxshi oʻqishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli oʻqish oʻqilgan matnning aniq mazmunini, asarning gʻoyaviy yoʻnalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib oʻqish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga oʻz munosabatini ifodalay olishdir. Ongli oʻqish oʻz navbatida,

¹ . Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- B. 76.

² Yoʻldoshev J.Gʻ. 1992-yil "Oʻqituvchilar uyi"dagi ijodkor oʻqituvchilarning 1-anjumanidagi nutqidan.

o`quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so`zning leksik ma`nosini, gapda so`zlarning bog`lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog`liq. Hozirda ongli o`qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma`noda: birinchidan, o`qish jarayonini egallashga nisbatan o`qish texnikasi ma`nosida, ikkinchidan, keng ma`nodagi o`qishga nisbatan o`qish sifatlaridan biri ma`nosida qo`llaniladi.

Ongli o`qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O`qituvchi ongli o`qishni matnni ifodali o`qishga (agar ovoz chiqarib o`qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to`g`riligiga, asar voqealari va qahramonlarning xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o`qish va ifodali o`qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o`xshamaydigan o`qish sifatlaridir.

Ifodali o`qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g`oyasi va jozibasini to`g`ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. “Ifodali o`qish adabiyotni aniq va ko`rgazmali o`qishning dastlabki va asosiy shaklidir”¹, -deb ta`kidlaydi metodist olim M.A.Ribnikova. Demak, “Ifodali o`qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o`quvchilarga ko`rgazmali qilib ko`rsatishdir. Ifodali o`qishning asosiy tamoyili o`qiladigan asar g`oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushunishdir”².

O`quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to`g`ri olish va to`g`ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to`g`ri artikulatsiyasi va aniq diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me`yorlarini egallash³.

Intonatsiya (ohang), og`zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg`u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig`indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta`sir etadi va hammasi birgalikda asarning

¹ Рыбникова М.А. Очерки по методике литературного чтени. – М.: Учпедгиз, 2000.-С.125.

² Jo`rayev K. Ifodali o`qish va hikoya qilish.-T.:O`qituvchi, 2001.-B. 7-9.

³Ko`rsatilgan manba. – B. 11.

mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotgan o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uning o'rmini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Mazkur standart talablarining o'zaro uzviy bog'liqligi (integratsiyasi), o'qish, ona tili ta'limida belgilanga vazifalarning amalga oshirishida asosiy omil hisoblanadi.

Masalan, 2-sinf "O'qish kitobi" darsligida "Ona yurtim-oltin beshigim" bo'limidagi matn va she'rlar namuna bo'la oladi. Xususan, bolalar ijodkori Po'lat Mo'minning "Vatanjonim, Vatanim" she'ri yurtni, xalqni, uning kelajagini ulug'lovchi fikrlar yordamida keng ochib bergan.

Vatanjonim, vatanim

Po'lat Mo'min

Vatanjonim, vatanim,

Ko'zim quvnab ko'rganim.

Istiqboldan kulganim,

O'zbekiston-gulshanim.

Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.
Vatanjonim, vatanim,
O'zbekiston-gulshanim.

Sen o'xshaysan onamga,
Maqtay butun olamga.
Vatanjonim, vatanim,
O'zbekiston-gulshanim.¹

Yuqoridagi she'r yordamida o`quvchilarning adabiy tiliga bo`lgan mehri, sadoqati ortishi bilan bir qatorda, tilimizning boyligi va sarmazmunlilikini o`rganadilar. She'rni yod olish barobarida esa ular xotiralarini mustahkamlashga va ravon, aniq so`zlashga ega bo`ladilar.

Shunday ekan o`quvchilarni she'rni o`qitishdan avval so`z musavviri, ya'ni shoir yoki yozuvchining o`y-fikrlarini to`liq va chuqur tushinishga yo`naltirish lozim.

Bu bilan o`quvchilarni nafaqat adabiy tilimizga bo`lgan muhabbati, balki _ badiiy adabiyotga, kitobga, qiziqarli hikoya va she'rlarga bo`lgan munosabati tubdan o`zgaradi

Boshlang'ich sinflarning o`qish darslarida o`rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo`lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodiyoti, mehnatga muhabbat, eng muhim bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o`laroq, boshlang'ich sinflarning o`qish darslarida o`quvchilarning o`qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-axloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog`lab olib boriladi.

¹ G'affarova T. O`qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2012.-B.3.

Shunga ko'ra o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadryatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki, matn tub zaminida tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda har qanday asardagi seyr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun mohiyatini anglab yetganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarini o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea-hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi, sababi har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatish zarur. K.D.Ushinskiy qayd etganidek, to'g'ri qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga keng yo'l ochadi. Shu sababli matn yuzasidan savol tuzish o'quvchining ongli va tushinib o'qishga chorlaydi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, Vatan, ma'naviyat va tabiyat haqidagi mavzular alohida ahamiyat kasb etadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, Vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

“O`qish kitobi” darsliklaridagi materiallar sinfdan sinfga o`tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatdan ham kengaya, chuqurlasha boradi.

1-sinfda o`rgatiladigan “Ajdodlarimiz-faxrimiz”, “Ilm-aql chirog`i”, “Zumrad bahor”, “Kumush qish”, “Oltin kuz” kabi mavzular keying sinflarda ham davom ettiriladi. Natijada o`quvchilarning oldingi bilimlari mustahkamlanadi, to`ldiriladi va yangi bilimlarga, taassurotlarga ega bo`ladilar.

Darslardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangliligiga, poetik mukammalliligiga, o`quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e`tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o`tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug` bobokolonimiz tomonidan olib borilgan namunali ishlari, tarixiy sanalar to`g`risidagi muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temir, Alisher Navoiy, Bobur, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek va boshqa ajdodlarimiz haqidagi hikoya va matnlar shular jumlasidandir.

Ma`lumki, har bir davrda o`nlab, yuzlab ijodkorlar yashaydi, bahodiqukrat qalam tebratadi. Biroq hech qachon ular yaratgan barcha asarlar badiiyatning ulkan talablarini birday ko`tara olmaydi. Balki bitilgan o`nlab, yuzlab asarlar orasidan barmoq bilan sanarlilari tom ma`nodagi badiiyat mahsuli o`laroq, haqiqiy kashfiyot sifatida adabiyotimiz xazinasida o`zining munosib o`rnini topadi, adabiyotimiz tarixining mangu barhayot mulkiga aylanadi.

Bolalarning sevimli shoiri Po`lat Mo`minning ota-onaga mehr, do`stlik, odob-axloq, mehnat va bilimdonlik, zukko bo`lishga chorlovchi she`rlari ham o`ziga xos o`rin tutishini alohida ta`kidlash loziidir.

Shoirning har bir she`ridan yosh kitobxon o`ziga muhim qirralarni kashf etishi mumkin. Jumladan, quyidagi she`rini oladigan bo`lsak:

Ey, aziz kitobxonim,
Yetganda kuch-imkonim,
Sizga she`rdasta tuzdim,
Qparzimni biroz uzdim.
Ochig`i, ko`pdir qarzim,

(Lekin sira yo'q arzim)

Qolmayin deb ginada,

Quduq qazdim ignada.¹

Ushbu she'riy parchadan ham ijod mashaqqatining o'ziga xos sir-sinoati, uning har bir sermahsul mehnati igna bilan quduq qazishga o'xshatilishini anglash mumkin.

Salom-inson insonga bildirgan hurmati, odamlarning o'zaro muomala va munosabatlarining boshlanishi, bir-biri bilan uchrashuvchi ikki dilning kalitidir. Salom berganingizda hatto sizga yoqimsiz nigoh bilan turgan odam ham alik oladi. Shu alik olish davomida sizga nisbatan ko'ngil to'rida iliqlik, yuzida tabassum paydo bo'ladi. Agar siz eshigini adashib taqillatgan inson uyi eshigini ranjiroq ochganida "Assalomu alaykum" deya salom bersangiz, u odam salomingizgsha alik oladi. Ikki o'rtadagi noxushlik, ijolatchilik unutiladi. Uy egasi beixtiyoor: "Qani mehmon, uyga kiraylik" deb iltifot qiladi. Bularning barchasi salomning inson insonga qiladigan hurmatining natijasi ekanidan dalalatdir. Shoir Po'lat Mo'minning "Salom berganlar"² she'rida ham ushbu holatni kuzatish mumkin:

Salomat bo'lsin

Salom berganlar.

Ko'ngil bog'idan

Gullar terganlar.

Bobolariga

"Assalom" degan,

Momolariga

"Achchalom" degan,

Tani-joningiz

Sog' bo'lsin, deya,

¹ Mo'min Po'lat. Bo'ladigan bolalar. She'rlar.- T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B. 3.

² Mo'min Po'lat. Bo'ladigan bolalar. She'rlar.- T.: Yangi asr avlodi, 2013. - B. 4.

Ko'nglingiz doim
Chog' bo'lsin, deya
Salom berganlar
Salomat bo'lsin.
Ishlari doim
Alomat bo'lsin
Eng a`lo ular,
Eng dono ular.

Shoirning “Sen erta turib”¹ she`rida o`zbeklarning bolalarni yoshligidan boshlab erta turishga o`rgatishlari, bu esa o`z navbatida ularning sog`lom bo`lishga o`rgatishlarini aks ettirib bergan:

Tonglar zavqin sur
Sen erta turib.
Puxta reja qur
Sen erta turib.

Havo musaffo,
Artilgan go`yo.
Qilaver huzur
Sen erta turib.

Chiniqsang asta
Bo`lmaysan xasta.
Maydonda yugur
Sen erta turib.

“Intilaman maqsadimga”¹ nomli she`rida esa har bir bolaning yoshligidan o`z oldiga bir maqsad qo`yishi, shu maqsad sari intilishi, harakat qilishini aks ettirib bergan:

¹ Mo`min Po`lat. Bo`ladigan bolalar. She`rlar.- T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B. 6.

Intilaman

Tog'lar sari
Borgan sari.

Cho'qqilarda

Bulut bo'lsam,
Burgut bo'lsam.

Ulg'ayaman

oshiqaman,
kuch yig'aman.

Dam olaman

qiyalarda
soyalarda.

Yuksaklarda

ruhim o'sar,
fikrim o'zar.

Qani endi,

chiqsam tikka
yuksaklikka.

Yuragimda

tilagim bor
Toleyim yor.

Intilaman

Maktabimga,
Maqsadimga!

Shu yurtda tug'ilib o'sgan, uning noz-ne'matoarini yeb-ichib ulg'aygan har bir inson uchun Vatan mehribon, mushfiq ona ekanligini anglash tuyg'usi bolalikdanoq qalbgga jo etilishi, qalb to'ridan o'rin egallashi kerakligi tasviri o'lka va ulug' ajdodlarimiz madhi bilan hamohang ravishda Po'lat Mo'min she'rlariga ko'rk bag'ishlaydi, badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy qimmatini belgilaydi.

¹ Ko'rsatilgan manba.- B. 9.

Po'lat Mo'minning 1-sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan "Vatan -bu..." she'rida ham fikrimizning tasdig'ini kuzatishimiz mumkin.¹

Vatan deganim bu-

Vatan deganim,

Yurakka Vatanim

Kerak deganim.

Vatan deganim bu-

Yurak deganim,

Birov-biroviga

Kerak deganim.

Aslida Vatan bu-

Tug'ilgan joyim,

Birinchi qadamim

Yetgan qo'rg'onim.

Adabiyot insonshunoslik bo'lar ekan, ijodkor qaysi mavzuda asar yaratishidan qat'i nazar, uning asari kitobxonni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda hatto tabiat va yil fasllari ta'rifiga bag'ishlangan asarlar mohiyatida ham ona Vatanni ulug'lash, sharaflash, yurt go'zalliklarini madh etish hamda kitobxon qalbiga ushbu tuyg'ularni ko'chirish yotishi tabiiy. Zero, aslida, tabiat va yil fasllari tasviriga bag'ishlangan bo'lsa-da, mohiyatan Vatan va vatanparvalik mavzulariga chambarchas bog'lanib ketadigan she'rlardagi betakror, kutilmagan o'xshatish va jonlantirishlar, shoir qalb qo'ridan paydo bo'lgan samimiy satrlar beixtiyor yosh kitobxon qalbiga ko'chadi, yosh, beg'ubor qalbgaga yurt muhabbatining bir umrlik shaydolidigini oshno qiladi.

O'zbek bolalar adabiyotida Vatan mavzui, yuqorida qayd etilganidek. Bolalar adabiyotimizning ilk qadamlaridan boshlanadi. SHoiralarimiz dil tug'yonlarining eng baland pardalarini doimo azizu mukarram Vatan vasfiga

¹ G'affarova T. va boshqalar. O'qish kitobi: 1-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2010.- B. 6.

bag'ishlaydilar. Zero, Vatan ona qadao muqaddas, ona qadao mukarram, ona qadar musaffodir. Vatanning noz-ne'matlari, boylkilari qanchalik qadrli, bog'u bo'stonlari, gulzoru chamanzorlari qanchalik qadrli bo'lsa, tog'u toshlari, cho'lu biyobonlari ham shunchalar go'zal va ardoqli. Binobarin, vatanparvar shoir yurtning qahraton qishidan ham, gullarga burkangan bahoridan ham, jazirama yozidan ham, to'kin-sochin kuzidan ham birday go'zallik izlaydi va kashf qiladi.

Ona Vatan tabiati oshuftasi Po'lat Mo'minning ko'plab she'rlarida biz har kuni ko'rib yurgan, biz uchun odatdagi narsaga aylanib qolgan tabait manzaralarini o'zgacha ko'z bilan ko'rishini kuzatish mumkin. Biz uchun shunchaki daraxt bo'lib tuyulgan eman bargining tovus dumiday go'zal, hashamdorligini kashf qiladi, kiyik yurgan so'qmoqlarning oppoq qorga burkanib yotgan qirlarida beqasam yo'l-yo'l chiziqlariday tovlanishini idrok etadi; uning nazdida, archa daraxtlari qulochini keng yoyib, betizgin shamolning paxmoq sochlarini erinmasdan yashil taroqlari bilan tarayotgan odamga aylanadi. Nazarimizda, xuddi ana shu betakror, kutilmagan o'xshatishlar she'rga jon baxsh etadi, yosh kitobxon ko'z o'ngida ona tabiatning jonli, mukammal manzarasini yaratadi, tabiatning har bir sahifasi, jumladan, dov-daraxt uyquga cho'mgan, hammayoq oppoq qor bilan qoplangan, issiq uyda o'tirib o'qiyotgan kitobingizdagi tasvir etingizni junjiktirib yuboradigan qahraton qish ham yosh kitobxon ko'z o'ngida aks etadi, yashirin go'zalligini namoyon qiladi, G'afur G'ulom aytmoqchi: "Biz uchun qardon qish"¹ ga aylanadi.

Bugungi o'zbek bolalar adabiyoti she'riyatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lgan Po'lat Mo'min she'rlariga ko'z tashlar ekansiz, uning ona Vatan kuychisi, ona Vatan tabiati shaydosi ekaniga imon keltirasiz. SHoir qalami ona Vatanning turfa manzaralarini mohir musavvirdek hassoslik bilan chizadi. Yosh kitobxonni ona Vatan oshuftasiga aylantiradi.

Bolalar adabiyotida ma'rifiylik haqida so'z borar ekan, bolaga tom ma'nodagi ma'rifatni ulashuvchi, eng avvalo, usto-o'qituvchi-muallimdir. Bolalarga mo'ljallangan asarlar orasida o'qituvchi ta'rifiga bag'ishlanganlari alohida o'rin tutishi hg'am shundan. Po'lat Mo'min ijodida ham bu kabi she'rlar oz emas. U bir

¹ Баракаев Р. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Академнашр, 2017.-Б.69.

qator sheʼrlarida oʻziga taʼlim bergan oʻqituvchilarini yuksak ehtirom bilan tilga oladi, “meni ilm-maʼrifat dunyosiga olib kirdingizlar” deb ularga taʼzim bajo aylaydi. Poʻlat Moʻminning “Oʻqituvchi berdi-da salom, suhbatini ettirdi davom”¹ sheʼrida ham fikrimizning tasdigʻini kuzatishimiz mumkin:

-Oʻqituvchilik
Oʻrgatish demak,
Oʻrgatish uchun
Oʻrganish kerak.
Gul ochilganda,
Gektar va gektar,
Bolari undan
Olar-da nektar,-
Soʻng uyasiga
Keltiradi bol.
Oʻqituvchi ham
Bunga bir misol.
Bilim bolini
Yigʻvolib men ham
Bolalar bilan

Boshlangʻich sinf oʻqish darslarida Poʻlat Moʻmin hayoti va ijodini oʻrganishsh boʻyicha nazariy maʼlumot berish mumkin. Bunda oʻz navbatida boshlangʻich sinf oʻqish darslarida Poʻlat Moʻmin hayoti va ijodini oʻrganishning ahamiyati masalasi oʻquvchilarga imkon qadar yoshini eʼtiborga olgan holda yetkazilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishimizning 1-bobida biz asosan bu xususida nazariy maʼlumotlarni berib oʻtishga eʼtiborni qaratdik. Oʻylaymizki, bu bobda ilgari surgan nazariy maʼlumotlarimizdan boshlangʻich sinf oʻqituvchilari aynan shu kabi maʼlumotlarni oʻquvchilarga tanishtirish jarayonida keng foydalanishlari mumkin.

¹ Moʻmin Poʻlat. Boʻladigan bolalar. Sheʼrlar.- T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B. 7.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA PO'LAT MO'MIN HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv—umslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

Pedagogik texnologiya o'zi nima?

Pedagogik texnologiyaning YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif quyidagicha: “Pedagogik texnologiya bu, ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir”.¹

Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarini mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

O'quvchilarning qiziqarli topshiriqlar asosida o'qitish, o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamagandek, o'qib ham charchaganini sezmaydi.

O'qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari, bilimlarni mukammal egallashlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi. Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1. O'quvchilarni asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarni boyitish, matnni ongli idrok etishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni o'quvchilar o'z hayotlarida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish. Bunda yangi pedagogik texnologiyaning “Interfaol” metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki

¹ G'affarova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.- T.: Sharq, 2003.- B. 13.

interfaol metodining asosiy maqsadi o'quvchilarning mustaqil fikrlash va erkin fikr bildirish malaka, ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

2. Ijodkorning hayoti bilan elementar tarzda tanishtirish, shoirga uning hayotiga, ijodiga qiziqish uyg'otish. Bu vazifani amalga oshirishda video, diafil'm va sharoit bo'lsa komp'yuterlardan foydalanishimiz yaxshi samara beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq eshitishdan ko'ra ko'rgan voqea-hodisalarini tez esda saqlab qoladilar va darsga bo'lgan qiziqishlari ham ortadi.

Kuzatishlarimizning natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning samarali modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars — muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materialini yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars — ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan — bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol —javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli — tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik — kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang—barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil

bajarishga undash, rang — barang baholash usullaridan foydalanish, ta`lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

An`anaviy dars o`tishning asosiy tarkibiy qismlari

1. Kirish

o`tgan materialni takrorlash; dars maqsadini tushuntirish; dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. Yangi mavzuni yoritish

yangi mavzuni kichik — kichik bo`lakchalarga bo`lib berish; rang — barang misollar imkoni boricha ko`rgazmali taqdim qilish; mavzudan chetlashmaslik; materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish; o`quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirib borish; teskari aloqani ta`minlash.

3. “Teta—poya” mashq

Biror misol (yoki masalani) o`quvchilar bilan qadamba — qadam hal qilish va tahlil qilish:

4. Yo`naltirib turiluvchi mashq

O`quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi, o`qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq

O`quvchilar mashqni mustaqil holda o`qituvchi yordamisiz bajarishadi.

6. O`quvchilar tushunganlik darajasini tekshirish

7. YAkunlash

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o`quv maqsadlarini jamlash.

An`anaviy ta`lim metodlarining afzalliklari:

- Ma`lum ko`nikmalarga ega bo`lgan va aniq ma`lum tushunchalarni, fanni o`rganishda foydali.
- O`qituvchi tomonidan o`qitish jarayonini va o`qitish muxitini

yuqori darajada nazorat qilinishi.

- Vaqtdan unumli foydalanish.
- Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Kamchiliklari:

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.
 - O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.
 - O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi.
 - Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir —xil bo'lmaganligi sababli, sinf buyicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin.
 - Mustaqil o'rganish va echimlar qabo'l qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

O'qitishning noan'anaviy modellari

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish
- Ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish
- O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish
- O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab — quvvatlash
- Amaliyot orqali o'rganish
- Ikki tomonlama fikr — mulohazalar bilan ta'minlash
- O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish
- O'qituvchi — o'quvchilar uchun o'quv jarayonini

yengillashtiruvchi shaxs

Noan'anaviy o'qitish modelini shartli ravishda 3ga ajratish mumkin.

Modellashtirish — real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini)

sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyati evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o'rganish modeli—o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli — o'quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

Noan'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarning afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi.
- O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.
 - Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
 - O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
- O'z—o'zini baholashning o'sishi.
 - O'quvchilarning predmetning mazmuniga. o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
 - Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi.
 - Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishi.
- Muammolar echish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

- Ko'p vaqt talab etilishi.
 - O'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.

- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.
- “Kuchsiz” o'quvchilar bo'lganligi sababli “kuchli” o'quvchilarning ham past baho olishi.
- O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

Masalan, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qish darslarida berilgan Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish jarayonida eng sodda va eng ko'p qo'llanadigan usullar bu “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Fikriy hujum” metodlaridir.

“Fikriy hujum” metodi o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish va yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. “Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida Ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida ta'lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin¹.

Mana shu metod asosida yuqorida aytib o'tilgan hadislar, hikmatlar va tez aytishlar yuzasidan o'quvchilarning qisqagina fikrlarini eshitib olib, oxirida

¹ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006.; Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

qisqagina xulosalanib, hadislar, hikmatlar va tez aytish matnlari bilan o`quvchilarni tanishtiriladi.

Bundan tashqari darsalarda yana quyidagi metodlardan ham darsga moslab foydalanish mumkin.

Fsmu texnologiyasi¹

Trening haqida

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs- munozaralar o`tkazishda yoki o`quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o`quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maksadida), yoki o`quv rejasi asosida biron bo`lim o`rganib bo`lingach qo`llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda, o`quvchilarni o`quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o`rgatadi.

Maqsad.

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog`ozga o`z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O`tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o`tkaziladi:

1 - bosqich.

- trener tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo`lgan muammoni yoki o`rganilgan bo`limni belgilab oladi;

- trener o`quv mashg`ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo`lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma`lumot beradi

- mashg`ulot davomida har bir tinglovchi o`z fikrini erkin holda to`liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o`tiladi.

¹ Ko`rsatilgan manba.

2 - bosqich.

- Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog`ozlar tarqatilishi:

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayoniga sabab ko`rsating.

M - ko`rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring

U - fikringizni umumlashtiring.

- Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog`ozdagi FSMU-ning 4 bosqichini o`z fikrlarini yozma bayon etgan holda to`latadi.

3 - bosqich.

- Har bir tinglovchi o`z qog`ozlarini to`latib bo`lgach, trener ularni kichik guruhlariga bo`linishlarini iltimos qiladi yoki o`zi turli guruhlariga bo`lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo`lib yuboradi;

- trener har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog`ozlarni tarqatadi:

- trener kichik guruhlariga har birlari yozgan qog`ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo`yicha yozishlarini taklif etadi.

4-bosqich.

- kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o`zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a`zolarini tanishtirib o`tadi. Guruh a`zolarining barcha fikrlari o`rganilgach, kichik guruh a`zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

- Guruh a`zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo`yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko`radilar;

- Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o`z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-bosqich.

- kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o`qiydi, iloji boricha izoh bermagan holda ba`zi

bo`limlarni isbotlashi, ya`ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o`tishi mumkin.

6-bosqich.

- trener mashg`ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o`z munosabatini bildiradi;

- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat qiladi:

- ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarni o`rgandingiz?

- ushbu texnologiyani o`kuv jarayonida qo`llanilishi katta samara berdi?

- ushbu texnologiyani qo`llanilishi o`quvchilarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

- ushbu texnologiyaning o`quv jarayonning qaysi bosqichida qo`llanilgani ma`qul va nima uchun?

- ushbu texnologiyani dars jarayonida qo`llanilishi o`quvchilarga nima beradi va nimaga o`rgatadi?

- ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o`tkazish mumkin?

- ushbu treningda trening asosiy vazifasi nimadan iborat?

Izoh: yuqorida keltirilgan savollar har bir trening mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener tomonidan tinglovchilarga yoki o`quvchilarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

FSMU texnologiyasi

(F) - Fikringizni bayon eting

(S) - Fikringiz bayoniga biron sabab ko`rsating

(M)- Ko`rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring

(U) - Fikringizni umumlashtiring

“Blits - o`yin” texnologiyasi.

Trening haqida tushuncha

Ushbu texnologiya o`quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to`g`ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o`rganayotgan predmeti asosida ko`p, xilma-xil fikrlardan, ma`lumotlardan kerakligini tanlab olishni o`rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o`quvchilar o`zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o`tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to`liq sharoit yaratib beradi.

Maqsad.

Ushbu texnologiya tashlotchilarga tarqatilgan qog`ozlarda ko`rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so`ngra o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish yoki o`z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo`la olishga yordam beradi.

O`tkazilish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o`tkaziladi:

1 - bosqich.

- Trener ushbu trening bir necha bosqichda o`tkazilishi haqida tinglovchilarga (o`quvchilarga) tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi.

- trener hamma tinglovchilarga alohida - alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o`rganishlarini so`raydi;

- trener tarqatma materilni mazmuni va bajarilishdagi vazifani tushuntiradi, ya`ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatni ketma-ketligini to`g`ri belgilash kerakligi, belgini esa qog`ozdagi alohida ajratilgan bo`limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi; qo`yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2-bosqich.

- trener birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi yoki qaytadan tushuntiradi;

hjar bir tinglovchi tarqatma materialdan «YAKKA BAHO» bo`limiga shu erda berilgan harakatlardan o`zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligi raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya`ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha qaysi biri birinchi bo`lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo`lishini va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun trener tinglovchilarga 10 daqiqa vaqt beradi.

3 - bosqich.

- trener tinglovchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so`raydi. 3 kishilik guruhlar tinglovchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo`yicha tashkil etilishi mumkin;

- kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri o`z qog`ozidagi yakka baho bo`limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo`lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta`sir o`tkazib, o`z fikrlariga ishonirib kelishgan holda bir muqimga kelib ularga tarqatilgan qog`ozdagi «GURUH BAHOSI» bo`limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

-trener kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun |20 daqiqa vaqt beriladi.

4 - bosqich

Barcha kichik guruhlar o`z ishlarini tugatgach, trener harakatlar ketma-ketligi bo`yicha to`g`ri javobni beradi, ya`ni tinglovchilardan ularga tarqatilgan qog`ozlardan “To`g`ri javob” bo`limini topishni va unga trener tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so`raydi.

5- bosqich

Trener “To`g`ri javob” bo`limida berilgan raqamlardan “Yakka baho” bo`limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya`ni kattadan-kichikni ayrgan holda “Yakka xato” bo`limiga chiqqan farqni yozishni so`raydi, “Yakka baho” bo`limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo`shib chiqib umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6 – bosqich

Xuddi shu tartibda “To`g`ri javob” va “Guruh bahosi” o`rtasidagi farq, kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi. Chiqarilgan farqlar soni “Guruh xatosi” bo`limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo`shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7- bosqich

Trener yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo`yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlab beradi.

“Yakka xato” bo`limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar yakka xatolar soni 30 gacha bo`lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, Konstruktivlik qobiliyati etarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni tashkil eta oladilar, turli sharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqan ularning ketma-ketligini tashkil eta oladilar.

Agar yakka xatolar soni 30 dan 40 gacha bo`lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qobiliyati etarli emas, biron bir ishni yoki faoliyatni tashkil etishlarida qiynaladilar yoki pala-partishlikka yo`l qo`yadilar. SHuning uchun ular alohida kurslarga o`qishlari yoki mantiqan fikrlashga o`rganishlari kerak bo`ladi.

Agar xatolar soni 40 dan yuqori bo`lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, mantiqiy fikrlash qobiliyati etarli emas, ular o`z ustilarida ishlashlari kerak bo`ladi yoki maxsus treninglar, kurslarda o`qishlariga to`g`ri keladi.

“Guruh xatosi” bo`limidagi umumiy sonlarning sharhi:

- Agar xatolar soni 30 gacha bo`lsa, bu guruxlardagi tinglovchilar bir-birlarini tushunishga harakat kilganlar, bir-birlarini ishontira olganlar va natijada bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o`rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

- Agar guruhning xatolar soni 30 dan 40 gacha bo`lsa, bu guruhda tinglovchilariing bir muqimga kelishlari qiyin bo`lgan, tortishuvlar yuzaki yoki ishonarsiz bo`lgan yoki guruh a`zolari bir-birlarini tushunishga sust holda intilganlar yoki vazifaga beparvoroq bo`lganlar yoki bir-birlarini xafa qilib qo`yishdan cho`chiganlar yoki guruhning barcha a`zolari yuzaki holda

kelishishgan-u, aslida esa har kim o'z fikrida qolgan bo'lishi mumkin. Samimiy munosabat bu guruhda o'z aksini topmagan. Agar guruh xatosining soni 40 dan ortiq bo'lsa, bu guruh a'zolari umuman bir-birlari bilan kelisha olmaganlar, o'zaro ishonitirish bo'lmagan. Har kim o'z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o'rnatilmagan.

Izoh: Bajarilgan vazifani baholashning yana bir turi quyidagicha:

Tinglovchilarning javoblari trener tomonidan berilgan "To'g'ri Javob" ning yarmidan ko'piga to'g'ri kelgan bo'lsa, demak, "qoniqarli", 75% to'g'ri kelgan bo'lsa "yaxshi", 100% to'g'ri kelgan bo'lsa "a'lo" deb belgilash mumkin.

8 - bosqich.

Misol tariqasida "Men "Kollektiv ijodiy ish" (KTD) – tashkilotchisi" mavzusidagi blits - o'yinining chizmasini keltirishimiz mumkin; (har bir o'qituvchi o'z fani yoki or'ganayotgan yoki o'tgan mavzusi asosida blits-o'yini shaklidan foydalanib o'yin mazmunini tuzishi mumkin).

Trener mashg'ulotni yakunlaydi. Guruhlarning ba'zilariga, ularning faoliyatlariga o'z fikrini bildiradi. Ushbu trener ularni nimalarga o'rgatgani, ular shu trening orqali nimalarni bilib olishlari bilan qiziqadi va kerakli savollarni beradi. Ushbu trening 1 soatga mo'ljallangan.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida berilgan Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish jarayonida yuqorida ta'kidlab o'tganimiz yoki nomlari aytib o'tilmagan bo'lsa ham boshqa interfaol usllardan foydalanib dars olib borilsa, o'quvchilarning bu matnlar yuzasidan erkin va mustaqil mushohada yuritishga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi.

Umuman olganda, interfaol usullar asosida olib boriladigan har bir dars o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib dars olib borilsa, darsning samarasi ham yaxshi bo'ladi.

2.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish darslari tahlili

Boshlang'ich ta'limda hajm jihatidan ixcham bo'lgan badiiy asar janrlaridan hikoya, ertak, masal, she'r, rivoyat, asotirlar, dostonlardan parchalar, xalq og'zaki ijodi namunalari, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va ilmiy-ommabop maqolalar o'qitiladi. Turli janrdagi asarlar syujeti, uslubiy bo'yog'i, til vositalarining o'ziga xosligi jihatidan o'quvchilarga har xil ta'sir qiladi. O'qish darslarida o'qituvchi o'rganilayotgan asarning janr xususiyatlarini inobatga olib, unga mos bo'lgan an'anaviy yoki noan'anaviy pedagogik usullardan foydalanishi zarur.

Boshlang'ich ta'limda asosiy maqsad ta'lim va tarbiyaga qaratilgan bo'lib, ular asar ichidan olinib yana bolalarga yetkaziladi. O'qish kitobini varaqlar ekanmiz tarbiya bosh maqsadda turganini faxmlab olamiz. O'quvchilarga har tomonlama bilim berishda boshlang'ich sinflardagi ta'lim va tarbiyaga qaratilgan asarlarning roli katta ekanligini ko'ramiz. Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'qish darslarida o'qituvchi o'rganilayotgan Po'lat Mo'min hayoti va ijodining muhim xususiyatlarini inobatga olib, unga mos bo'lgan an'anaviy yoki noan'anaviy pedagogik usullardan foydalanishi zarur.

Shu o'rinda biz fikrimizni asoslash uchun bir dars ishlanmasini keltirishni o'rinli deb bildik.

1-sinf "O'qish kitobi"ning "O'zbekiston-mening Vatanim" bo'limi orqali o'quvchilar Po'lat Mo'minning "Vatan – bu..." she'ri bilan yaqindan tanishadilar.

1-dars. Mavzu: Vatan-bu...

(Po'lat Mo'min)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarning to'g'ri, ongli, ifodali va qiroat bilan o'qish malakalarini takomillashtirish.

Tarbiyaviy maqsad: Vatan tushunchalarini kengaytirish. Ularda Vatan tuyg'usini shakllantirish, o'z Vataniga muhabbatli bo'lishga, uni qadrlashga

o`rgatish. O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti IA.Karimov, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Bolalar-bizning kelajagimiz” degan fikrlarining ma`nosini anglashlariga erishish.

Rivojlantiruvchi maqsad: to`g`ri, ongli, ifodali o`qish malakalarini rivojlantirish, lug`atga aniqlik kiritish va lug`at boyligini roivojlantirish. Vatan haqidagi tushunchalarini boyitish.

Darsning tipi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Izohli o`qish va tushuntirish metodlari.

Darsning jihozi: Vatanimizning o`tmishi va hozirgi kunlari tasvirlangan rasmlar, testlar.

Darsning borishi:

1. Dars O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi bilan boshlanadi. O`quvchilar Madhiyani kuylab turganda Davlat bayrog`i, Davlat gerbi, Konstitutsiya kitobini namoyish qilib, eshikdan uch o`quvchi kirib keladi.

2. Darslik bilan tanishtirish. Madhiya tugashi bilan har bir o`quvchi “O`qish kitobi”ni ko`tarib xattaxta oldiga chiqadi.

Darslik yuzasidan suhbat o`tkaziladi:

1. O`qing, bu qaysi darslikq (“O`qish kitobi” darsligi).

2. Uni sizga kim sovg`a qilganq (Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev sovg`a qilganlar).

3. Nima maqsadda sovg`a qilganlarq (Bolalar o`qishni bilib olishsin, bilimlarni egallasin deganlar).

4. Bu darslikni kimlar yozgan ekanq (O`qituvchi darslikni ochib, mualliflar yozilgan joyni ko`rsatib, o`quvchilarga o`qitadi. Ularning mehnati haqida qisqacha ma`lumot beradi).

5. Kitob haqida qaysi she`rni yod olgansizlarq Kitob haqida o`quvchilar o`qigan, yod olgan she`rlar eslatiladi. Yoki o`qituvchi yoddan o`zi aytib beradi. Nodir kitoblarning hozirgi kunga qadar saqlanib kelinayotganini aytib, sizlar ham kitoblaringizni toza saqlang, yirtmang, ichiga chizmang, buklamang, undan ukalaringiz ham foydalanishadi, tarzida maslahat beriladi.

6. Kitobingizni oching, rasmni kuzating. Unda nima tasvirlanganq Doskaga qarang. Bu rasmda nima tasvirlangan, ikkalasiga bir xil nom qo'yish mumkinmiq Nima deb nomlasak bo'ladiq (Mening Vatanim-O'zbekiston.) O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtiradi: O'zbekiston-Vatanim mening.

3. She'rni o'qishga tayyorgarlik: tayyorgarlik ham suhbat metodida amalga oshiriladi:

- Vatan deganda nimani tushunasizq
- Nima uchun odamlar Vatanimni sevadiq
- Vatanimni yaxshi ko'rgan odamlar nima qiladiq

O'quvchilarning javobi umumlashtiriladi: Vatan-har bir inson tug'ilgan va yashaydigan maskan, joy. Siz tug'ilib o'sayotgan, bilim olayotgan qishloq, shahar, Respublikamiz-sizning Vatamingiz. Odamlar o'z Vatanimda tarbiyalanadi: Bilim oladi, dam oladi, o'z yaqin va yaxshi ko'rgan kishilari bilan birga bo'ladi. SHuning uchun uni sevadilar.

Vatanimni sevgan odamlar uning rivojlanishi, tinch bo'lishi uchun mehnat qiladi.

Siz ham yaxshi xulqingiz bilan Vatanimni sevishingizni namoyish qilishingiz lozim. She'r nomi aytilib, shoir haqida ma'lumot beriladi. Po'olat Mo'min sevimli bolalar shoiri. U kishi yoshligidanoq kitob olishga, ertak eshitishga qiziqqan. Ertak eshitib, kitob o'qibgina qolmay, ularning mag'zini chaqishga ham harakat qilgan. Men ham ertak yaratsam, kitoblar yozsam, deb orzu qilgan. U hamma fanlardan a'lo baholarga o'qigan. Shunday qilib, keyinchalik o'zi ham she'r, ertak, topishmoqlarni siz-bolajonlar uchun yaratgan.

4. She'r bilan tanishtirish. She'rni qiroat bilan o'qib beriladi. Izohli o'qish metodidan foydalaniladi. Buning uchun she'rdagi qo'rg'onim, millatim so'zlari ma'nosi izohlanadi, shunda she'rni o'quvchilar yaxshiroq anglaydilar. So'zlar ko'rgazmali plakatga yozib osib qo'yiladi:

So'z ma'nolarini bilib oling.

Qo'rg'on-yashaydigan keng, katta joy.

Millatim-xalqim-bir tilda qaplashadigan, Vatani bir, urf-odatlarini, an`analari bir xil bo`lgan odamlarni bir millat, bir xalq deyishadi.

So`zlarning ma`nosi oldin o`quvchilardan so`raladi, so`ng o`qituvchi izohlaydi.

5. She`r yuzasidan dastlabki suhbat. She`r sizga yoqdimiq She`r nima haqida ekanq

6. She`rni o`quvchilarga o`qitish. Oldin bir marta jo`r bilan o`qish mashq qilinadi. Keyin o`qish malakasi yaxshi shakllangan o`quvchilarga o`qitiladi. So`ng bandlarga bo`lib o`qitiladi.

7. Topshiriq bilan o`qitish. She`rning birinchi bandini o`qing, mazmunini ayting. Nega shoir vatanni yurak deyapti?

O`quvchilarning javobi aniqlashtiriladi. Shu vatanda, shu tuproqda, shu yer va shu yurtda tug`ildingiz. Shuning uchun ham bu Vatan sizga onadek aziz. Inoslar uchun ba`zi narsalar faqat bitta bo`ladi. Ona, ota, vatan va odamlarning yuragi ham bitta o`ladi. Odam yuraksiz yashay olmaydi, yurakni almashtirib ham bo`lmaydi. Xuddi shunday inson vatansiz ham yashay olmaydi. Shuning uchun ham shoir vatanni yurak bilan tenglashtirgan. (Xuddi shu tarzda she`rning boshqa bandlari ham tahlil qilinadi. Bunda ko`proq o`quvchilarning xususiyatlarini e`tiborga olib, ularning faoliyatini boshqarishi va hikoyani soddalashtirishi yoki murakkablashtirishi mumkin.)

8. She`rni qiroat bilan o`qish musobaqasi qatorlararo o`tkaziladi. Qatorlardagi har bir bolaga baho qo`yib borishadi. Ballar jamlanib, g`olib qator e`lon qilinadi. Bu orqali bolalar orasida o`zaro yordam yo`lga qo`yiladi.

9. "Bolalar-bizning kelajagimiz" gapini tahlil qilish. Bu gap nima uchun aytilgani o`quvchilardan so`raladi va ular javobni to`ldiradi: Qadimda bizning yurtimizda olimlar, shoir va yozuvchilar, sarkardalar, davlatni boshqaruvchilar, mehnatkashlar ko`p bo`lgan. Bolalardan shunday mashhur kishilardan kimlarni bilishlari so`raladi. Bilmasa o`qituvchining o`zi yordamlashadi. Ular Vatanning ozodligi, tinchligi, taraqqiy etishi uchun ijod qilgan-mehnat qilgan. Siz ham ularga

o'xshab olim bo'lish uchun harakat qilishingiz lozim. Kelajakda Vatanimizni rivojlantirib, boy davlatga aylantirishingiz kerak.

10. Maqol o'qish va ma'nosini izohlash: Darslikda berilgan maqollar o'quvchilarga o'qitiladi, ayrim Vatandan uzoqda, uni qo'msab yashayotgan, o'z Vatanida mehnat qilib, to'q va farovon yashayotgan kishilar misolida tushuntiriladi. Jo'r bo'lib aytish orqali yod oldiriladi.

11. Tez aytish mashqi: darslikda berilgan tez aytishni yod olish va nafas bilan bir necha marta aytish.

12. Mustahkamlash:

Krossvord yechish.

1. Vatan.

2. Yurak.

3. Kerak.

(Bunda shakl ham V ko'rinishini oladi.)

17. Test.

Ona so'zi to'g'ri qo'llanilgan qatorni toping.

A) Ona-Vatan, ona tuproq;

V) Ona-ko'cha, ona-dala;

She'rdagi Vatan so'zi necha marta takrorlangan?

A) 5 marta;

B) 4 marta;

“Vatan-bu” she'rining muallifi kim?

A) Po'lat Mo'min;

B) Erkin Vohidov;

Vatan degani nima ekan?

A) Tug'ilgan joyi, yashaydigan uyi, yurti;

B) Millati, xalqi, odamlar.

Krossvord va testlar har bir o'quvchi uchun ko'paytirilib, uyga berilishi ham mumkin.

13. Vaqtga qarab “Kim ko’p maqol aytadi”, tez aytish musobaqalarini o’tkazish mumkin. G’oliblar rag’batlantiriladi. O’quvchilarning reytingi aniqlanadi.

14. She`rni yod olish uyga vazifa qilib beriladi.

She`rni yod olish yo’li bilan o’rgatiladi; She`rni oldin to’g’ri xatosiz o’qish mashq qilinadi. Bir necha marta o’qish orqali tez o’qish o’zlashtiriladi. So’ng 2 marta o’qitilib, yoddan aytiladi. Keyinchalik 4 misra yoddan aytiladi. Qayta-qayta o’qish va yoddan aytish yo’li bilan she`rni yodlash mumkinligi, oxirida onasiga, otasiga, aka va opalariga yoddan aytib berish lozimligi tushuntiriliadi.

15. Darsda o’rganilganlar savollar yordamida umumlashtiriladi va o’quvchilar reytingi e`lon qilinadi.

Umuman olganda, boshlang’ich sinf o’qish darslari orfali o’quvchilarga bolalar shoiri Po’lat Mo’min hayoti va ijodini o’rgatish darslarida bugungi kunda ta`lim jarayonida keng tatbiq etilayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llagan holda darslarni tashkil etib olib borish kerak. Bu esa o’z navbatida darsning qiziqarli chiqishni, o’quvchilarning darsda ko’zlangan natijalar olishlariga erishishni ta`minlaydi. Ayniqsa, biz bitiruv malakaviy ishimizda keng to’xtalganimiz Po’lat Mo’min hayoti va ijodini o’rganish darslarida ham bu masalaga keng e`tiborni qaratgan holda ilg’or texnologiyalarni qo’llagan holda darslarni tashkil etib olib borilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish jarayonida o'qituvchi katta malakaga, mahoratga va tajribaga ega bo'lmog'i lozim. Uning har bir darsi bir sahnaviy asarga o'xshashi, bu orqali o'quvchilar qalbiga sezilarli ta'sir o'tkaza olishi kerak. Toki, o'quvchi dars tugasa ham, shu o'qituvchining darsini intiqib kutadigan bo'lsin. Hattoki, o'qituvchi uyidan yomon kayfiyatda chiqqan bo'lsa ham, bu kayfiyati o'quvchilarga salbiy ta'sir etmasligi kerak. Bu kabi holatlarni biz aktyorlardagina, hofizlardagina uchratmaymiz. Balki o'qituvchilarda ham shu kabi vaziyatlarga ko'p bora duch kelamiz.

O'qituvchi ham har bir darsini ana shunday hayotiy voqealarni, ya'ni o'zini qiynagan voqealar bilan uyg'unlashtirmagan holda, olib borsa o'quvchilar undan o'ziga xos tarzda xulosa chiqaradilar, shuningdek, o'rganayotgan bo'lim materiallarini to'liq o'zlashtirishlariga erishiladi ham.

Umuman, boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish shu sinfdagi darslikdagi bo'lim materiallari bilan yaqindan tanishtirish jarayonida mazkur har xil janrdagi asarlarga bo'lgan ularning qiziqishlarini orttirishga erishilishi lozim bo'ladi. Buning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik mahoratga ega bo'lgan holda ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklardan boxabar bo'lishi, ularni dars jarayonida bolalarning yoshi va xarakter xususyaitlarini e'tiborga olgan holda qo'llay bilishi lozim bo'ladi.

Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamas ekan, albatta uning olib borgan har bir darsi bolalarda yaxshi taassurot qoldirmaydi. Vaholanki, o'qish darsi fanlar ichida eng qiziqarli va o'quvchilarning diqqatini tortuvchi fan bo'lib, bu darsni zerikarli ravshida tashkil etib olib borish yaramaydi. Shuni e'tiborga olgan holda Boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganishga,

bu mavzulardan o'zlariga ijobiy xulosalarni chiqarib olishlariga urg'uni qaratdik. Sababi, bu dasradagi mavzular bolalarning ta'lim, tarbiyasida, ma'naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu mavzularni o'tish jarayoniga befarq munosabatda yondashib bo'lmaydi. Buning uchun ta'lim jarayoniga kirib kelgan yangi pedagogik texnologiya, integratsiya, modulli texnologiya, interfaol usullardan keng qamrovda foydalanib darslarni tashkil etib olib borishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ayniqsa, interfaol usullar, modulli texnologiya asosida olib borgan darslarimiz o'quvchilarda katta qiziqishni uyg'otdi. Bu o'z navbatida ularni mustaqil va erkin mushohada yuritishga, o'z fikrini qo'rqmay ayta olishiga ham sabab bo'ldi.

Shuning uchun ta'lim jarayonida interfaol usullardan bolaning yosh xususiyatini e'tiborga olgan holda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2014. -46 б.
3. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.- Тошкент: Ўзбекистон, 2016.-56 б.
4. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Тошкент :Ўзбекистон, 2016.-488 б.
5. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатлари таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.-488 б.
6. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.- Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-104 б.
7. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.- 176 b.
8. Karimov I.A. Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi. – T.: Ma`naviyat, 2006.-112 b.
9. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida. – Toshkent: O`zbekiston, 2000. – 96 b.
10. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi (to`plam). – Toshkent, 2000.-64 b.
 - a. 9.
 11. Abdullayeva Q. va boshqalar. O`qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: O`qituvchi, 2010.- 192 b.
 12. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2003.- 176 b.
 413. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O`quv qo`llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg`armasi, 2006.

14. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O`qituvchi, 2000.- 198 b.
15. Matchonov S., Shojalilov A., G`ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O`qish kitobi: 4-sinf uchun darslik. - Toshkent: O`qituvchi, 2011. – 240 b.
16. Matchonov S., G`ulomova X., Dolimov Z. O`qish kitobi: 4-sinfda o`qish darslari: O`qituvchi kitobi.- Toshkent: Yagiyul poligraf servise, 2007.- 192 b.
17. Matchonov S., G`ulomova X., Dolimov Z. O`qish kitobi: 4-sinfda o`qish darslari: O`qituvchi kitobi.- Toshkent: Yagiyul poligraf servise, 2011.- 240 b.
18. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- 352 b.
19. Quدراتov O., G`aniyev T. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. – T.:Aloqachi, 2004.
20. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
21. Umarova M. O`qish kitobi: 3-sinf uchun darslik.- T.: O`qituvchi, 2012.- 224 b.
22. G`affarova T. O`qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2012.- 176 b.
23. G`affarova T. va boshqalar. O`qish kitobi: 1-sinf uchun darslik.- Toshkent: Sharq, 2012.- 128 b.
24. G`afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang`ich sinflar uchun ona tili va o`qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: Ilm Ziyo, 2004. – 80 b.
25. G`ulomov A., Qobilova B. Nutq o`stirish mashg`ulotlari: O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. – Toshkent: O`qituvchi, 2001.- 160 b.
26. Nam DU. uz.

27. WWW. referat. uz.
28. WWW. rambler. literature. ru.
29. www. tdpu. uz
30. www. pedagog. uz
31. www. Ziyonet. uz
7. www. edu. uz
8. tdpu-INTRANET. Ped

MUNDARIJA:

SO'Z BOSHI.....	3
I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA PO'LAT MO'MIN HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH YO'LLARI	6
1.1. Po'lat Mo'min hayoti va ijodi haqida umumiy ma'lumot	6
1.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganishning ahamiyati.....	20
II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA PO'LAT MO'MIN HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH USULLARI.....	38
2.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish darslarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish.....	38
2.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida Po'lat Mo'min hayoti va ijodini o'rganish darslari tahlili.....	51

Tiraji 100 ta